

BO‘LAJAK BOSHLANG‘ICH SINFI O‘QITUVCHILARIDA TRANSFORMATSIYA YONDASHUVI ASOSIDA MILLIY O‘ZLIKNI ANGLASHNI SHAKLLANTIRISH MEKANIZMLARI

Turaboyev Azamat Maxamadullayevich
University of Business and Science
pedagogika va psixologiya kafedrası o‘qituvchisi
turaboevazamat@gmail.com

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.21887274>

Annotatsiya: Mazkur maqolada transformatsiya yondashuvi asosida bo‘lajak boshlang‘ich sinfi o‘qituvchilarida milliy o‘zlikni anglashni rivojlantirish mexanizmlarining nazariy-metodologik asoslari tizimli ravishda tahlil qilinadi. Tadqiqotda refleksiya, kasbiy identifikatsiya, milliy qadriyatlar, innovatsion pedagogik texnologiyalar hamda pedagogik qo‘llab-quvvatlashning o‘zaro integratsiyasiga tayangan holda taklif etilgan mexanizmlarning mazmun-mohiyati va amaliy samaradorligi yoritiladi. Shuningdek, maqolada oliy ta‘lim muassasalarida bo‘lajak boshlang‘ich sinfi o‘qituvchilarida milliy o‘zlikni anglashni rivojlantirishga xizmat qiluvchi omillar, hulosa va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: milliy qadriyatlar, ongli munosabat, kasbiy mas‘uliyat, refleksiv tafakkur, mustaqil qaror qabul qilish, qobiliyat, pedagogika, milliy identifiklik, diagnostik mezonlar, indikatorlar, dunyoqarash, milliy dastur.

MECHANISMS FOR FOSTERING NATIONAL SELF-AWARENESS IN PROSPECTIVE PRIMARY SCHOOL TEACHERS BASED ON A TRANSFORMATIONAL APPROACH.

Abstract: This article presents a systematic analysis of the theoretical and methodological foundations regarding mechanisms to develop national self-awareness in prospective primary school teachers, utilizing a transformational approach. The study elucidates the essence and practical effectiveness of the proposed mechanisms, which are grounded in the integration of reflection, professional identity, national values, innovative pedagogical technologies, and pedagogical support. Furthermore, the article outlines the factors contributing to the development of national self-awareness among prospective primary school teachers in higher education institutions and presents relevant conclusions and recommendations.

Keywords: national values, conscious attitude, professional responsibility, reflective thinking, independent decision-making, aptitude, pedagogy, national identity, diagnostic criteria, indicators, worldview, national program.

МЕХАНИЗМЫ РАЗВИТИЯ НАЦИОНАЛЬНОГО САМОСОЗНАНИЯ У БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ НАЧАЛЬНОЙ ШКОЛЫ НА ОСНОВЕ ТРАНСФОРМАЦИОННОГО ПОДХОДА

Аннотация: В данной статье представлен систематический анализ теоретических и методологических основ механизмов развития национального самосознания у будущих учителей начальной школы с использованием трансформационного подхода. Исследование раскрывает сущность и практическую эффективность предложенных механизмов, основанных на интеграции рефлексии, профессиональной идентичности, национальных ценностей, инновационных педагогических технологий и педагогической поддержки. Кроме того, в статье изложены факторы, способствующие развитию национального самосознания у будущих учителей начальной школы в высших учебных заведениях, и представлены соответствующие выводы и рекомендации.

Ключевые слова: национальные ценности, осознанное отношение, профессиональная ответственность, рефлексивное мышление, самостоятельное принятие решений, способности, педагогика, национальная идентичность, диагностические критерии, показатели, мировоззрение, национальная программа.

KIRISH. Hozirgi globallashuv jarayonlari, raqamli texnologiyalar taraqqiyoti va axborot makonining tobora kengayib borishi yosh avlodning milliy o‘zligini anglashini rivojlantirish masalasini pedagogika fanining ustuvor ilmiy yo‘nalishlaridan biriga aylantirmoqda. Ayniqsa, bo‘lajak boshlang‘ich sinfi o‘qituvchilarida milliy qadriyatlarga hurmat, tarixiy xotiraga sadoqat, Vatanga daxldorlik hissi, fuqarolik mas‘uliyati hamda ma‘naviy yetuklikni rivojlantirish kelajak avlodni barkamol etib

tarbiyalashning muhim shartlaridan hisoblanadi. Chunki boshlang'ich ta'lim o'qituvchisi o'quvchilarga faqat bilim beruvchi mutaxassis emas, balki ularning ma'naviy dunyoqarashi, milliy o'zligini anglashi va umuminsoniy qadriyatlarni o'zlashtirishiga bevosita ta'sir ko'rsatuvchi tarbiyachi sifatida ham faoliyat yuritadi. Shu bois pedagog kadrlarni tayyorlash tizimida milliy o'zlikni anglashni rivojlantirishga xizmat qiluvchi zamonaviy pedagogik mexanizmlarni ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish dolzarb ilmiy-amaliy vazifalardan biri sanaladi.

Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi doirasida ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish, pedagog kadrlar tayyorlash sifatini yangi bosqichga olib chiqish hamda ularning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish ustuvor yo'nalish sifatida e'tirof etilgan. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 11-maydagi PF-134-son Farmoni bilan tasdiqlangan “2022–2026-yillarda maktab ta'limini rivojlantirish bo'yicha Milliy dastur” hamda “O'zbekiston-2030” strategiyasida ta'lim mazmunini xalqaro standartlar asosida modernizatsiya qilish, pedagoglarning kasbiy mahoratini muntazam oshirish, yoshlarni milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash, ularning ijodiy va tanqidiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish ustuvor vazifalar sifatida belgilangan. Mazkur normativ-huquqiy hujjatlar bo'lajak pedagoglarni tayyorlash jarayonida milliy o'zlikni anglashni rivojlantirish hamda innovatsion pedagogik yondashuvlardan samarali foydalanish zaruratini yanada kuchaytiradi.

Mazkur vazifalarni amalga oshirishda transformatsiya yondashuvi muhim metodologik asos sifatida namoyon bo'ladi. Ushbu yondashuv shaxsning mavjud bilimlari, hayotiy tajribasi, qadriyatlari va dunyoqarashini tanqidiy-refleksiv tahlil qilish orqali ularni yangi mazmun bilan boyitishga qaratilgan. Transformatsion o'zgarishlar jarayonida bo'lajak pedagog o'z qarashlarini qayta baholaydi, yangi bilimlarni mavjud tajribasi bilan uyg'unlashtiradi va ularni shaxsiy e'tiqodi hamda kasbiy faoliyati bilan integratsiyalashga erishadi. Natijada unda milliy qadriyatlarga ongli munosabat, kasbiy mas'uliyat, refleksiv tafakkur, mustaqil qaror qabul qilish qobiliyati va pedagogik pozitsiyaning barqarorligi shakllanadi.

Milliy o'zlikni anglash shaxsning o'z millatiga mansubligini anglash, milliy qadriyatlar va tarixiy-madaniy merosni qadrlash, Vatan taraqqiyotiga daxldorlik hissini his etish hamda umuminsoniy qadriyatlar bilan uyg'un holda faoliyat yuritish kompetensiyasini ifodalovchi ko'p qirrali pedagogik-psixologik hodisadir. Shu sababli uni rivojlantirish faqat nazariy bilimlarni egallash bilan chegaralanmaydi. Ushbu jarayon refleksiv faoliyatni tashkil etish, qadriyatlar tizimining transformatsiyasi, amaliy tajribani boyitish, ijtimoiy hamkorlikni rivojlantirish hamda shaxsning uzluksiz kasbiy o'zini rivojlantirishini ta'minlovchi mexanizmlarning uzviy integratsiyasini talab etadi.

MAVZUGA ADABIYOTLAR TAHLILI. Hozirgi globallashuv jarayonlari, raqamli texnologiyalar taraqqiyoti, madaniyatlararo hamkorlikning kengayishi hamda ta'lim tizimini modernizatsiya qilishga qaratilgan islohotlar sharoitida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida milliy o'zlikni anglashni rivojlantirish masalasi pedagogika fanining ustuvor tadqiqot yo'nalishlaridan biriga aylandi. Ushbu muammo pedagogika, psixologiya, falsafa, sotsiologiya va madaniyatshunoslik kabi fanlarning o'zaro integratsiyasi asosida o'rganilib, uning nazariy va metodologik asoslari turli ilmiy maktablar tomonidan boyitib borilgan.

Milliy o'zlikni anglashning ilmiy mohiyatini izohlashda shaxs identifikatsiyasi nazariyalari muhim o'rin egallaydi. Bu borada E. Erikson tomonidan ishlab chiqilgan psixosozial rivojlanish nazariyasi alohida e'tiborga loyiq. Olim identiklikni shaxsning o'zini anglash, jamiyatdagi o'rnini belgilash hamda hayotiy maqsad va qadriyatlarini shakllantirish jarayoni sifatida tavsiflaydi. Eriksonning qarashlariga ko'ra, identiklik shaxsning ma'naviy yetukligi va ijtimoiy barqarorligini ta'minlovchi muhim psixologik omildir. Mazkur nazariy yondashuv milliy o'zlikni anglashni shaxsning milliy qadriyatlarni o'zlashtirishi, milliy madaniyat bilan o'zini uyg'unlashtirishi va fuqarolik mas'uliyatini anglash jarayoni sifatida talqin etish imkonini beradi.

Milliy identiklikning ijtimoiy jihatlarini chet el olimlaridan H.Tajfel va J. Turner tomonidan ishlab chiqilgan ijtimoiy identiklik nazariyasida keng yoritilgan. Ularning fikricha, insonning muayyan ijtimoiy guruhga mansublik hissi va mazkur guruh qadriyatlarini qabul qilishi identiklikning asosiy mezonlaridan biridir.[4] Ushbu konsepsiya bo'lajak pedagoglarda kasbiy hamda milliy identiklikni uyg'un rivojlantirishning nazariy asoslarini belgilashda muhim metodologik manba bo'lib xizmat qiladi.

Milliy identiklikning psixologik xususiyatlari G. M. Soldatova tadqiqotlarida chuqur tahlil qilingan. Olim milliy identiklikni shaxsning etnik va madaniy mansubligini anglash, milliy qadriyatlarga ijobiy munosabatni shakllantirish hamda tolerantlik tamoyillarini rivojlantirish bilan bog'liq murakkab psixologik

tizim sifatida tavsiflaydi. Uning ilmiy ishlari milliy o'zlikni anglash darajasini aniqlash va baholash metodikalarini ishlab chiqishda muhim nazariy asos vazifasini bajaradi.

Shaxs qadriyatlarini shakllantirish masalalari M. Rokeach va Sh. Schwartz tadqiqotlarida ham keng yoritilgan. M. Rokeach qadriyatlarni insonning xulq-atvori va faoliyatini boshqaruvchi barqaror e'tiqodlar tizimi sifatida izohlasa, Sh. Schwartz qadriyatlarining universal modelini ishlab chiqib, milliy va umuminsoniy qadriyatlarning o'zaro uyg'unligi shaxs kamolotining muhim omili ekanligini asoslab beradi. Ushbu ilmiy qarashlar bo'lajak o'qituvchilarda milliy qadriyatlarga tayangan kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirishning psixologik-pedagogik asoslarini belgilashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Ta'limdagi transformatsiya yondashuvining ilmiy negizi J. Mezirow tomonidan ishlab chiqilgan transformativ ta'lim nazariyasiga tayanadi. Olimning ta'kidlashicha, transformativ ta'lim shaxsning mavjud qarashlari, tajribasi va qadriyatlarini tanqidiy tahlil qilish orqali yangicha dunyoqarashni shakllantirishga xizmat qiladi. Ushbu jarayonda refleksiya, tanqidiy fikrlash, muloqot, tajribani qayta ko'rib chiqish hamda yangi bilimlarni amaliyot bilan bog'lash asosiy o'rin tutadi. Mazkur nazariya bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida milliy o'zlikni anglashni rivojlantirishning innovatsion pedagogik mexanizmlarini ishlab chiqish uchun mustahkam metodologik poydevor yaratadi.

P.Freire ta'limni inson ongini rivojlantiruvchi va ijtimoiy o'zgarishlarni yuzaga keltiruvchi jarayon sifatida baholaydi. Uning dialogik ta'lim konsepsiyasiga ko'ra, ta'lim oluvchi bilimni passiv qabul qiluvchi emas, balki o'z tajribasi asosida uni faol ravishda yaratadigan subyektdir. Shu nuqtai nazardan, milliy o'zlikni anglashni shakllantirishda muammoli ta'lim, interfaol metodlar hamda reflektiv faoliyatdan foydalanishning samaradorligi ilmiy jihatdan asoslanadi.

Konstruktivistik ta'lim nazariyasi namoyandalari J. Piaje va L. Vigotskiy bilimning shaxs tomonidan faol tarzda shakllantirilishini asoslab berganlar. Ayniqsa, Vigotskiyning ijtimoiy-madaniy rivojlanish nazariyasida shaxs tafakkurining rivojlanishi ijtimoiy muhit, madaniy tajriba va qadriyatlar bilan uzviy bog'liq ekanligi ta'kidlanadi. Ushbu ilmiy yondashuv milliy qadriyatlarni pedagogik jarayon mazmuniga integratsiya qilishning nazariy asoslarini belgilaydi.

O'zbekiston olimlari ham milliy o'zlikni anglash muammosini turli ilmiy yo'nalishlarda keng tadqiq etganlar. Jumladan, S. S. Otamurotov milliy taraqqiyot, milliy g'oya hamda globallashuv sharoitida milliy identiklikni saqlash masalalarini tahlil qilib, milliy o'zlikni anglashni jamiyat rivojlanishining muhim omillaridan biri sifatida baholaydi. Olimning fikricha, tarixiy xotira, milliy til, madaniyat va qadriyatlar o'zaro uyg'un holda milliy identiklikning shakllanishiga xizmat qiladi.

N.Jo'rayev ilmiy izlanishlarida tarixiy xotira va milliy tafakkurning rivojlanish qonuniyatlari tahlil qilinib, yosh avlodni milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalashning nazariy asoslari ishlab chiqilgan. A. Erkeyev esa milliy g'oya, ma'naviyat va milliy tafakkur masalalarini tadqiq etib, milliy o'zlikni anglashni jamiyat ma'naviy xavfsizligini ta'minlovchi muhim omil sifatida talqin qiladi.

Pedagogika yo'nalishida Q. Hoshimov, R. Mavlonova [6], M. Ochilov, B. Xodjayev [5], N. Egamberdiyeva va boshqa olimlarning ilmiy ishlari milliy tarbiya, kompetensiyaviy yondashuv, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim hamda bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy tayyorlash masalalariga bag'ishlangan. Ushbu tadqiqotlar milliy qadriyatlarni zamonaviy pedagogik texnologiyalar bilan uyg'unlashtirishning nazariy hamda amaliy asoslarini shakllantirishda muhim ilmiy manba hisoblanadi.

So'nggi yillarda transformatsiya yondashuvi asosida ta'limni tashkil etishga bag'ishlangan ilmiy izlanishlarda reflektiv pedagogika, kompetensiyaviy yondashuv, raqamli pedagogika va uzluksiz kasbiy rivojlanish konsepsiyalarini integratsiyalash zarurligi alohida qayd etilmoqda. Biroq mavjud tadqiqotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, transformativ ta'lim nazariyasini milliy o'zlikni anglashni rivojlantirish jarayoni bilan kompleks bog'lash masalasi hali yetarli darajada o'rganilmagan. Xususan, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida transformatsiya yondashuvi asosida milliy o'zlikni anglashni shakllantirishning pedagogik mexanizmlari, bosqichlari, diagnostik mezonlari, indikatorlari hamda metodik ta'minoti tizimli ravishda ishlab chiqilmagan.

O'rganilgan ilmiy manbalar tahlili shuni ko'rsatadiki, milliy o'zlikni anglash, identiklik, qadriyatlar tizimi, transformatsiya va kompetensiyaviy yondashuvning nazariy asoslari yetarlicha yoritilgan bo'lsa-da, ularni yagona pedagogik model doirasida o'zaro integratsiyalashga qaratilgan tadqiqotlar soni cheklangan. Shu bois transformatsiya yondashuvi asosida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida milliy o'zlikni anglashni shakllantirish mexanizmlarini ishlab chiqish, ularning tarkibiy komponentlari, pedagogik shart-sharoitlari, baholash mezonlari va amaliy texnologiyalarini ilmiy asoslash zamonaviy pedagogika fanining muhim ilmiy vazifalaridan biri hisoblanadi. Mazkur tadqiqot ana shu ilmiy ehtiyojni qondirishga qaratilib, transformatsiya yondashuv hamda milliy qadriyatlar integratsiyasi asosida bo'lajak boshlang'ich sinf

o'qituvchilarining kasbiy va milliy identikligini rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirishni nazarda tutadi.

Xulosa va tavsiyalar. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida milliy o'zlikni anglashni rivojlantirish masalasi globallashtirish, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal taraqqiyoti hamda oliy ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar sharoitida alohida dolzarblik kasb etishini ko'rsatdi. Milliy o'zlikni anglash shaxsning milliy qadriyatlarga bo'lgan munosabatini shakllantirish bilan bir qatorda, uning fuqarolik mas'uliyati, kasbiy o'zini anglash, pedagogik mahorati va ma'naviy-axloqiy fazilatlarini rivojlantirishga ham bevosita ta'sir etuvchi muhim omil sifatida namoyon bo'ldi.

Tadqiqot doirasida transformatsiya yondashuvining nazariy va metodologik asoslari kompleks tahlil qililib, E. Erikson, H. Tajfel, J. Turner, G. M. Soldatova, M. Rokeach, Sh. Schwartz, J. Mezirow, P. Freire, J. Piage hamda L. Vigotskiy tomonidan ilgari surilgan ilmiy qarashlar milliy identiklikni rivojlantirishning psixologik, pedagogik va ijtimoiy-madaniy mexanizmlarini tushuntirishda muhim ilmiy poydevor vazifasini bajarishi aniqlandi.

Tahlillar transformatsiya yondashuvi talabalarining dunyoqarashi va kasbiy pozitsiyasini sifat jihatidan yangilashga xizmat qiluvchi samarali pedagogik yondashuv ekanligini tasdiqladi. Ushbu yondashuv refleksiya, tanqidiy tafakkur, qadriyatlarni qayta baholash, shaxsiy tajribani boyitish hamda milliy va umuminsoniy qadriyatlarni uyg'unlashtirish orqali bo'lajak o'qituvchilarning milliy o'zligini anglash darajasini izchil rivojlantirish imkonini beradi.

Tadqiqot natijalariga tayangan holda milliy o'zlikni anglashni rivojlantirishning to'rtta asosiy tarkibiy qismi aniqlandi. Ular motivatsion-qadriyatli, kognitiv, refleksiv-faoliyat hamda kasbiy-identifikatsion komponentlardan iborat bo'lib, o'zaro uzviy bog'langan holda bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisining kasbiy va milliy identikligini kompleks rivojlantirishga xizmat qiladi.

Shuningdek, mazkur jarayonning samaradorligini ta'minlovchi pedagogik shart-sharoitlar ham belgilandi. Jumladan, milliy qadriyatlarni o'quv jarayoni mazmuniga integratsiya qilish, interfaol va refleksiv metodlardan foydalanish, raqamli ta'lim vositalarini milliy mazmun bilan boyitish, talabalarining mustaqil izlanishlari hamda loyiha faoliyatini qo'llab-quvvatlash, shuningdek, innovatsion pedagogik texnologiyalarni tizimli ravishda qo'llash yuqori natijadorlikni ta'minlovchi omillar sifatida baholandi.

Nazariy tahlillar asosida transformatsiya yondashuvi bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida milliy qadriyatlarga sodiqlik, fuqarolik pozitsiyasi, pedagogik refleksiya, kasbiy motivatsiya, innovatsion fikrlash va ijtimoiy faollik kabi sifatlarning rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatishi isbotlandi. Natijada ular ta'lim-tarbiya jarayonini milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg'unligi asosida tashkil etishga tayyor, zamonaviy kompetensiyalarga ega pedagog sifatida shakllanish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

Umuman olganda, tadqiqot doirasida ishlab chiqilgan transformatsiya yondashuviga asoslangan pedagogik mexanizmlar bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining milliy o'zligini anglashni tizimli rivojlantirish, kasbiy kompetentligini takomillashtirish hamda zamonaviy ta'lim talablariga javob beradigan raqobatbardosh pedagog kadrlarni tayyorlashga xizmat qiluvchi ilmiy-amaliy model sifatida tavsiya etilishi mumkin.

Oliy pedagogik ta'lim muassasalarida amalga oshirilayotgan o'quv dasturlarini takomillashtirish jarayonida transformatsiya yondashuvi asosida milliy o'zlikni anglashni rivojlantirishga qaratilgan maxsus fanlar, modullar va o'quv kurslarini joriy etish maqsadga muvofiq.

Pedagogika hamda boshlang'ich ta'lim yo'nalishlari talabalarining kasbiy identikligini mustahkamlash maqsadida refleksiv mashg'ulotlar, treninglar, muammoli vaziyatlar tahlili va loyiha faoliyatlarini muntazam tashkil etish tavsiya etiladi.

Milliy o'zlikni anglashni rivojlantirish jarayonida transformativ ta'lim texnologiyalari, muammoli o'qitish, keys-metod, debat, portfolio, refleksiv kundalik hamda zamonaviy raqamli platformalardan uyg'un holda foydalanish samaradorlikni oshiradi.

Talabalarining milliy o'zlikni anglash darajasini baholash maqsadida motivatsion-qadriyatli, bilish, faoliyat va refleksiv ko'rsatkichlarga tayangan diagnostik mezonlar hamda baholash vositalarini ishlab chiqish va ta'lim amaliyotiga tatbiq etish zarur.

Pedagogik amaliyot davrida talabalarining tarixiy meros, xalq pedagogikasi, milliy madaniyat va ma'naviy qadriyatlarni ta'lim jarayoniga integratsiya qilish bo'yicha amaliy ko'nikmalarini rivojlantirishga ustuvor ahamiyat berilishi lozim.

Boshlang'ich ta'lim fanlarining metodik ta'minotini milliy qadriyatlar, tarixiy xotira, madaniy meros va fuqarolik mas'uliyati mazmuni bilan boyitish orqali ta'lim samaradorligini oshirish imkoniyatlari kengayadi.

Sun'iy intellekt texnologiyalari, elektron portfolio, virtual muzeylar, raqamli kutubxonalar va multimedia resurslaridan foydalanish talabalarning milliy o'zlikni anglash jarayonini yangi bosqichga olib chiqishga xizmat qiladi.

Oila, mahalla, maktab va oliy ta'lim muassasalari hamkorligini uzviy tashkil etish orqali milliy qadriyatlar va fuqarolik mas'uliyatini rivojlantirishning yaxlit pedagogik tizimini shakllantirish maqsadga muvofiq.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2021. – 464 b.
2. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – Toshkent: O'zbekiston, 2016.
3. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. 1–2-jildlar. – Toshkent: O'zbekiston, 2017.
4. Tajfel, H. (1979). *Individuals and Groups in Social Psychology*. British Journal of Social and Clinical Psychology, 18(2), 183–190
5. Xodjayev, B.X. *Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti*. – Toshkent: Sano-standart, 2017.
6. Mavlonova, R., Rahmonqulova, N., Vohidova, N. *Pedagogika nazariyasi va tarixi*. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2010.
7. Xalilova N.I., Amirova O.Q. Ijtimoiy psixologiya. Etnopsixologiya. – Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti, 2022. – 456 b.
8. G'oziyev E.G'. *Psixologiya*. – Toshkent: O'qituvchi, 2008. – 352 b.
9. Otamurotov S.S. *Globalashuv va millat*. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2008.
10. SHAXSDA KREATIVLIK SIFATLARINI RIVOJLANTIRISHNING PSIXOLOGIK OMILLARI A To'raboyev - MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI JURNALI, 2025 Related articles All 2 versions <https://doi.org/10.5281/zenodo.15641133>
11. Baxtiyor, Q. (2024). THE CORRELATION RELATIONSHIP OF THE DEVELOPMENT OF CREATIVITY IN ADOLESCENTS WITH ACHIEVEMENT.
12. Qayumov, B. Z. (2025). O'SMIRLARDA KREATIVLIK NAMOYON BO'LISHINING HUDUDIIY TAFOVUTLARI. MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI JURNALI, 3(6).